

1. Malakaviy talablar bilan tanishish

Har bir vakant lavozimga alohida malaka talablari belgilanadi.

Malaka talablariga mos kelmagan va (yoki) test sinovidan muvaffaqiyatli o'ta olmagan nomzodlar ishga qabul qilinmaydi.

Nomzodlardan:

soha yo'nalish bo'yicha oliy ma'lumot;

soha yo'nalishi bo'yicha, shuningdek solishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari bo'yicha yuqori bilim va ko'nikma;

davlat tili (rus, ingliz tili)ni mukammal bilish, ingliz tilini bilgan nomzodlarga alohida e'tibor qaratiladi;

kompyuter dasturlaridan yuqori darajada foydalana olish talab etiladi.

Quyidagilar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin emas:

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, agar davlat fuqarolik xizmati lavozimiga doir malaka talablarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

sudning qarori bilan muayyan muddatga davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash huquqidan mahrum qilingan shaxslar;

korupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxslar;

og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar;

tibbiy xulosaga asosan sog'lig'ining holati davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash imkonini bermaydigan shaxslar;

2. Vakant lavozimlarga ish qabul qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligiga, Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali (hrm.argos.uz) orqali ochiq va ichki tanlov asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining 2026-yil 2-fevraldagi "Yengil sanoatni rivojlantirish agentligida mavjud vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida"gi tartibga asosan amalga oshiriladi.

Nomzodlar yoshi, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va mansab mavqeyidan qat'iy nazar, o'zlarining kasbiy, ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlar hamda ma'lumot darajasiga ega, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va tegishli lavozimni egallash uchun malaka talablariga javob beradigan O'zbekiston Respublikasi

fuqarolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligiga ochiq va ichki tanlov orqali ishga qabul qilinadi.

3. Ishga qabul qilish chog'ida talab etiladigan hujjatlar:

pasportni yoki uning o'rmini bosuvchi hujjatni yoxud identifikatsiyalovchi ID-kartani, o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar esa tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomani yoki identifikatsiyalovchi ID-kartani;

oxirgi ish joyi bo'yicha tasdiqlangan qog'oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno. O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasining o'rniga asosiy ish joyidan olingan belgilangan namunadagi ma'lumotnomani taqdim etadi;

harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishincha harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani;

oliy yoki o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni, qaysi ishni bajarish uchun faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar qo'yilishi mumkin bo'lsa, o'sha ishga kirish chog'ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoxud boshqa tegishli hujjatni;

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini.

Ishga qabul qilish chog'ida ishga kirayotgan shaxsdan ushbu Kodeksda, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.